



MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASINING FUQAROLIK HUQUQIY ASOSLARI: MUAMMOLAR VA YANGICHA YONDASHUVLAR.

O'rolova Nozima Erkin qizi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Prokurorlik faoliyati" yo'nalishi -bosqich talabasi E-mail:urolovanozima5@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mahsulot yetkazib berish shartnomasining fuqarolik huquqiy asoslari tahlil qilingan. Mahsulot yetkazib berish bilan bog'liq amaliyotdagi muammolar va kamchiliklar muhokama qilingan. Ushbu sohani rivojlantirishga oid xorij tajribasi va amaldagi holatlar o'rganilib, qonunchilikka bir nechta takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *mahsulot yetkazib berish shartnomasi, shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari, mahsulot yetkazib berish muddati, to'lov shartlari, tovarning sifati.*

Аннотация: *В данной статье анализируются гражданско-правовые основы договора поставки товаров. Обсуждаются проблемы и недостатки, связанные с практикой поставки товаров. Изучены иностранный опыт и существующие положения в данной сфере, а также разработаны предложения по совершенствованию законодательства.*

Ключевые слова: *договор поставки продукции, права и обязанности сторон договора, срок поставки продукции, условия оплаты, качество продукции.*

Annotation: *This article analyzes the civil law foundations of the product supply contract. It discusses the problems and shortcomings related to the practice of product delivery. Foreign experiences and current regulations in this field are examined and proposals for improving the legislation are developed.*

Key words: *product supply agreement, rights and obligations of the parties to the agreement, product delivery period, payment terms, product quality.*

Mahsulot yetkazib berish shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnoma subyektlari o'rtasida eng ko'p tuziladigan bitim turlaridan hisoblanib, subyektlarning huquq va majburiyatlarini aniq aks ettirish vositasidir. Mahsulot yetkazib berish shartnomasi bilan bog'liq muammolar amaliyotda yetarlicha topiladi. Biz maqolamizda buning ayrim jihatlarini tadqiq etdik.

Mahsulot yetkazib berish shartnomasiga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida quyidagicha ta'rif berilgan: tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan mahsulot yetkazib beruvchi — sotuvchi shartlashilgan muddatda yoki muddatlarda o'zi ishlab chiqaradigan yoxud sotib oladigan tovarlarni sotib oluvchiga tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun yoki shaxsiy, oilaviy maqsadlarda, ro'zg'orda va shunga o'xshash boshqa maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun topshirish, sotib oluvchi esa tovarlarni qabul qilish va



ularning haqini to'lash majburiyatini olishga qaratilgan fuqarolik-huquqiy shartnoma.¹⁰ Mahsulot yetkazib berish bilan bog'liq fuqarolik huquqiy shartnomalar mamlakatimizda faqatgina Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solingan.

Yuqorida mahsulot yetkazib berish shartnomasiga qonunchilikda belgilangan ta'rifidan kelib chiqib, uning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib o'tamiz.

Birinchidan, shartnoma subyektlari tadbirkorlik faoliyati subyekti bo'lishi kerakligidir. Aynan shu jihatdan ham mahsulot yetkazib berish shartnomasi boshqa fuqarolik huquqiy shartnomalarda farq qilib, u ishbilarmonlik muomalasida foyda olish uchun tuziladi.

Ikkinchidan, tovarlarning shaxsiy iste'mol uchun ishlatilmasligi. Bu jihat mahsulot yetkazib berish shartnomasini oddiy oldi-sotdi shartnomasidan ajratib turadi. Tovarlarni xaridor tomonidan odatda ishlab chiqarish, qayta ishlash yoki tijorat maqsadida foydalaniladi.

Uchinchidan, yetkazib beruvchi mahsulotni aniq kelishilgan muddatda yoki muddatlar oralig'ida yetkazib berishi shart. Tovarlarni bosqicma-bosqich yetkazib berish sharti esa taraflar tomonidan shartnomada kelishiladi. Bu jihat mahsulot yetkazib berish shartnomasini oddiy oldi-sotdi shartnomasidan ajratadi. Unda bir martalik tovar topshirilishi emas, davriy (ketma-ket) yetkazib berish nazarda tutiladi.

Shartnomaning predmeti- muomaladan chiqarilmagan har qanday ashyolar shartnoma predmeti bo'la oladi.¹¹ Taraflarning haq to'lash, majburiyatlarni bajarish va ularni bajarmaganlik uchun javobgarlik choralari ham shartnomada aniq belgilab qo'yilishi lozim. Bularni inobatga olib, mahsulot yetkazib berish shartnomasini — bu oddiy tovar ayirboshlash emas, balki tadbirkorlar o'rtasidagi rejalashtirilgan, muddatli, yirik hajmli va tijoratga oid huquqiy bitim deya e'tirof etamiz. Uni boshqa shartnoma turlaridan ajratib turadigan eng muhim jihatlar — maqsadi (tadbirkorlik), muddati, va shaxsiy foydalanishdan holiligi hisoblanadi. Biz mahsulot yetkazib berish shartnomasini tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan tuziladigan shartnomalar turkumiga kiritamiz.

Bugungi kunda xalqaro savdo aloqalari rivojlangan bo'lib, tadbirkorlik qilish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Asrimizda Internet va raqamli texnologiyalar taqdim etayotgan qulayliklar va tobora raqamlashtirish jarayonlari barcha sohalarni qamrab olib, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini ham o'ziga jalb etmoqda. Bu jarayonda mahsulot yetkazib berish shartnomasi ham zamonaviy sharoitga moslashmoqda. Masalan, elektron shartnomalar tuzish, tovarni ishlab chiqarish yoki buyurtma asosida tayyorlash, tovarlarni qadoqlash, markirovkalash va jo'natishga tayyorlash, logistika va yetkazib berish xizmatlarini tashkil etish, elektron to'lovlar va hisob-kitoblar qilish, tovarni topshirish va qabul qilish hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonlari xalqaro savdoda raqamli dunyoga o'tib bormoqda. Shartnoma tuzishdan boshlab uni yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlar elektron tarzda amalga oshirilmoqda. Bugungi raqamli

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-180552> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-qism.

¹¹ Fuqarolik huquqi darslik. II qism. O.Oqyulov va boshqalar. Toshkent-2023. 46-bet



va globallashtirish sharoitida mahsulot yetkazib berish shartnomasi bilan bog'liq tadbirkorlik harakatlari faqat ishlab chiqarish va jo'natish bilan cheklanmaydi. Ular logistika, elektron shartnomalar, transchegaraviy huquqiy masalalar, smart texnologiyalar, va to'lov tizimlarigacha kengaygan. Bu o'z o'rnida qulayliklar yaratishi bilan ma'lum kamchiliklarga ham ega. Agarda taraflar o'rtasida nizo kelib chiqadigan bo'lsa, javobgarlikni aniq qo'yishda xaridor tomonidan qiyinchiliklarning mavjudligi, raqamli va xalqaro tizimlardagi tafovutlar, Tovar sifati va yetkazib berish bilan bog'liq kamchiliklarni isbotlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Buning sabablari quyidagicha bo'lishi mumkin.

Bugungi savdo tizimida ishlab chiqaruvchi, distribyutor, marketpleys, logistika kompaniyasi, agent va boshqalar ishtirok etadi. Bu o'ziga xos tijorat zanjirini tashkil qiladi. Xaridor ba'zi hollarda faqat platforma bilan shartnoma tuziladi, yetkazib beruvchini tanlamaydi. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri ikki subyektni bog'lamaydi. Shartnomada umumiy standart huquqlar va majburiyatlar yozish emas, balki ularni aniq aks ettirish kerak.

Raqamli shartnomalarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining to'liq qamrab olinmaganligi. Mamlakatimizda 2022-yilda elektron tijorat sohasida qonun qabul qilingan. Unda elektron tijoratga quyidagicha ta'rif berilgan: **elektron tijorat** — tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi.¹² Lekin qonunda elektron shartnomalar tushunchasi ta'rif berilmagan. Shuningdek, so'nggi yillarda elektron tijoratda marketplace, kripto-to'lovlar, aqlli shartnomalar, dropshipping, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar paydo bo'ldi, ammo ular qonunda nazarda tutilmagan.

Keyingi o'rinlarda esa mahsulot sifatining onlayn fizik ko'zdan kechirishdan o'kazib bo'lmazligi. Yetkazib berishda logistika va bojxona masalalaridagi muammolar natijasida mahsulot sifatiga ta'sir etishi va bunga javobgarlikni kimning zimmasiga yuklash masalalarini inobatga olish lozim. Shartnomalarda kafolat va sifat nazoratiga oid bandlarning belgilanmasligi ham nizoli holatlarda isbotlashni qiyinlashtiradi.

Bu sohada xalqaro huquqda yagona amaliyotni o'rnatish uchun "United Nations Convention on Contracts for the International Sale of Goods" (Xalqaro tovarlar sotish shartnomalari to'g'risidagi BMT konvensiyasi) 1980-yil Venada qabul qilingan. Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq, konvensiya quyidagi savdo shartnomalariga nisbatan qo'llanilmaydi:

(a) shaxsiy, oilaviy yoki ro'zg'or ehtiyojlari uchun xarid qilingan tovarlarga, agar sotuvchi shartnoma tuzilgan vaqtda yoki undan oldin bu tovarlar aynan shunday maqsadlarda sotib olinayotganini bilmagan yoki bilishi shart bo'lmagan bo'lsa, bundan mustasno;

(b) auksion (kimoshdi savdosi) orqali amalga oshirilgan savdolarga;

¹² <https://lex.uz/docs/-6213382> "Elektron tijorat to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni



(c) sud qarori yoki boshqa qonuniy vakolat asosida majburan ijro etiladigan savdolarga;

(d) aksiyalar, ulushlar, investitsiya qimmatli qog'ozlari, muomalaga layoqatli hujjatlar yoki pulga doir savdolarga;

(e) kemalar, suzuvchi vositalar, yengil suzuvchi vositalar (hovercraft) yoki samolyotlarga doir savdolarga;

(f) elektr energiyasi savdosiga.¹³

Yuqoridagi konvensiya xalqaro savdo shartnomalariga oid eng muhim huquqiy hujjatlardan biridir. U 90 dan ortiq davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan. Xalqaro tovarlar sotish shartnomalari to'g'risidagi BMT konvensiyasi mahsulot sotib olish va sotish bo'yicha xalqaro shartnomalar uchun bir xilda huquqiy asos yaratadi, shu jumladan to'lovlar, yetkazib berish va shartnomaviy majburiyatlarni belgilaydi. Konvensiyada shartnomalarini tuzishda har xil masalalar (masalan, yetkazib berish muddati, sifat kafolatlari, xarajatlar va boshqalar) bo'yicha aniq tartiblar belgilab qo'yilganligi uchun ham uning xalqaro huquqda katta ahamiyat kasb etadi.

Mahsulot yetkazib berish shartnomalarini tartibga soluvchi xalqaro konvensiyalar savdo ishtirokchilari uchun huquqiy asoslar yaratadi va ular o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Mahsulot yetkazib berish va savdo shartnomalarini amalga oshirishda har bir mamlakat o'ziga xos qonunlarni, shartnomalarini va xalqaro kelishuvlarni amalga oshirishi mumkin.

Mahsulot yetkazib berish shartnomalaridagi yangicha yondashuvlar xorij tajribasida bir nechta muhim o'zgarishlar va innovatsiyalarni ko'rsatmoqda. Bu yondashuvlar, asosan, global savdo va logistika sohasidagi yangiliklar, texnologik rivojlanishlar va zamonaviy talablar bilan bog'liq. Ular elektron shartnomalar va smart kontraktlar tuzishmoqda. Innovatsion logistik yondashuvlarni qo'llab, yetkazib berishda avtomatlashtirilgan qurilmalar, dronlar va gadjetlardan foydalanishmoqda. Ko'pchilik kompaniyalar esa yashil logistika usuli qo'llashmoqda. Mahsulotlarni yetkazib berishda bir nechta kanallardan foydalanishmoqda. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda xalqaro maydonda raqamli texnologiyalar, ekologik mas'uliyat va mijozga yo'naltirilgan xizmatlarga urg'u berish tendensiyasi rivojlanib bormoqda.

Xulosa sifatida sohadagi ayrim muammolarga yechimlarimizni taklif qilamiz. Mahsulot yetkazib berish muddatlarining kechikishi uchun aniq va qat'iy javobgarlikni belgilash zarur. Mahsulot sifati haqida ham bu qoida qat'iy belgilanishi kerak. Bu talablarni bajarmaganlik yoki to'liq bajarmaganlik uchun jarima miqdorlarining foizlarini va javobgarlik choralari aniq ko'rsatish kerak. Shartnomada fors-major holatlari aniq belgilanishi lozim. "Inkotermis" qoidalarini qo'llash, shartnoma asosida jo'natma raqami va yuk holatini kuzatish mexanizmi joriy qilish, mahsulotni sug'urtalash va akkreditiv kabi kafolatli to'lov usullaridan foydalanish kerak. Mahsulot yetkazib berish shartnomalarida eng ko'p uchraydigan muammo — yetkazib

¹³ https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/19-09951_e_ebook.pdf United Nations Convention on Contracts for the International Sale of Goods.



berishning kechikishi va mahsulot sifatidagi kamchiliklar hisoblanadi. Bu holat biznesda zarar, mijozlar ishonchini yo'qotish va nizolarga olib kelishi mumkin. Biz taklif etgan yondashuvlar o'z vaqtida va sifatli yetkazilishini ta'minlab, nizolar oldini oladi hamda ishonchli savdo munosabatlarini shakllantiradi.

IQTIBOSLAR:

1. <https://lex.uz/docs/-180552> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-qism.
2. Fuqarolik huquqi darslik. II qism. O.Oqyulov va boshqalar. Toshkent-2023. 46-bet
3. <https://lex.uz/docs/-6213382> "Elektron tijorat to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni
4. https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/19-09951_e_ebook.pdf
United Nations Convention on Contracts for the International Sale of Goods.